

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 146 (1745), 2026-yil 21-iyul, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON VA BELARUS O‘RTASIDAGI
HAMKORLIKNING SAMARALI
NATIJALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20-iyul kuni Belarus Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari Viktor Karankevich boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkonning samimiy salomi va egzu tilaklarini yetkazdi. O‘zbekiston bilan Belarus o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Mamlakatimiz yetakchisining shu yil 8-9-iyul kunlari Minsk shahriga amalga oshirgan rasmiy tashrifi, eng avvalo, savdo-iqtisodiy

sohada samarali natijalar bergani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash hajmini 2 milliard dollarga yetkazish hamda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini ilgari surish maqsadida qabul qilingan chora-tadbirlar rejasini o‘z vaqtida amalga oshirish muhimligi ta’kidlandi.

Yurtimizda birinchi atom elektr stansiyasi va turdosh infratuzilmani barpo etishda

Belarus tajribasidan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Bo‘ljak atom elektr stansiyasini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish jarayonlarini ekspertlik jihatidan qo‘llab-quvvatlash, soha uchun milliy kadrlarni tayyorlash hamda tegishli oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida qo‘shma dasturlarni yo‘lga qo‘yish shular jumlasidan.

O‘ZA

PREZIDENTLAR ISHONCHI BILAN
BELARUSDA OCHILGAN YANGI ESHIK
YOXUD STRATEGIK SHERIKLIK QANDAY QILIB MEHNATNI
DAROMADGA, YERNI HOSILGA VA DO‘STLIKNI IKKI XALQ
FAROVONLIGIGA AYLANTIRMOQDA?

Xalqaro hamkorlik

Xalqaro munosabatlar haqida gap ketganda, ko‘pincha rasmiy tashriflar, imzolangan hujjatlar, savdo raqamlari va diplomatik bayonotlarni tilga olamiz. Albatta, bularning barchasi muhim. Ammo oddiy inson uchun tashqi siyosat kundalik hayotida seziladigan natijalar orqali ma’no kasb etadi. Yangi ish o‘rni, barqaror daromad, farzandlar uchun ta’lim imkoniyati, mehnat huquqlarining ishonchli himoyasi va yetishtirilgan mahsulot uchun bozor diplomatiyaning xalq hayotiga kirgan ko‘rinishidir. Siyosat odamlar hayotiga ish o‘rni, uy-joy, ta’lim, texnologiya va daromad bo‘lib kirgandagina haqiqiy kuchga aylanadi.

Prezidentimizning joriy yil 8-9-iyul kunlari Belarus Respublikasiga rasmiy tashrifiga shu nuqtayi nazardan qarasak, uning tarixiy ahamiyati yanada yaqqol

namoyon bo‘ladi. Tashrif yakunida O‘zbekiston va Belarus o‘rtasida strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi deklaratsiya imzolandi va ikki mamlakat

Ishonch hujjatga jon bag‘ishlaydi

Davlatlar o‘rtasida shartnoma imzolash, savdo rejalari tuzish mumkin. Ammo tomonlar o‘rtasida haqiqiy ishonch bo‘lmasa, ko‘p hujjat qog‘ozda qolib ketadi.

Davomi 3-beta

DUNYO YOSH KIMYOGARLARINING TOSHKENT TAJRIBASI

buyuk kashfiyotlarga qo‘yilgan mustahkam qadamdir

Joriy yilning 10-19-iyul kunlari dunyo mamlakatlari nigohi yana bir bor O‘zbekistonga qaratildi. Ilm markazi sifatida shuhrat qozonayotgan vatanimiz dunyodagi eng nufuzli intellektual musobaqalardan biri — 58-xalqaro kimyo olimpiadasiga mezbonlik qildi. Mazkur olimpiada O‘zbekistonda va umuman, Markaziy Osiyoda ilk bor tashkil etildi.

Davomi 5-beta

ICHIMLIK VA OQOVA SUV TIZIMINI
YAXSHILASH BO‘YICHA LOYIHALARNI
SIFATLI AMALGA OSHIRISH BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ichimlik va oqova suv xizmatlarini yanada yaxshilash chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda sohaga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10 karra oshib, 2,7 milliard dollarga yetdi. Natijada aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasi 2017-yildagi 63 foizdan qariyb 83 foizga ko‘tarildi.

Shu davrda 7,7 million aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlandi, 11 million aholining suv ta’minoti yaxshilandi, yana 1,1 million kishi kanalizatsiya tizimiga ulandi. 39 ming kilometr ichimlik suv va 3,2 ming kilometr oqova suv tarmoqlari qurilib, rekonstruksiya qilindi. 3,4 mingta ichimlik suv inshooti, 295 ta oqova suv inshooti va nasos stansiyasi barpo etildi hamda yangilandi.

Kelgusi yillarda ichimlik suvi ta’minotini 90 foizga, shaharlarda kanalizatsiya xizmati qamrovini 80 foizga yetkazish maqsad qilingan. Buning uchun qo‘shimcha 1,3 milliard dollar investitsiya jalb etilishi ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari erishilgan natijalar bilan birga loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish, mavjud muammolarni o‘z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish tizimi hali talab darajasida emasligini ko‘rsatib o‘tdi.

Xususan, Andijon shahridagi kanalizatsiya tizimida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish uchun 107 milliard so‘m ajratildi. Sergeli tumanida yoqimsiz hid tarqalishining oldini olish maqsadida zamonaviy filtrlarni o‘rnatish ishlari boshlandi.

Surxondaryo viloyati aholisini To‘palang suv omboridan ichimlik suv bilan ta’minlash loyihasi doirasida Termiz shahrigacha tarmoq tortib kelindi. Yil yakuniga qadar Sherobod, Muzrabot, Angor va Jarqo‘rg‘on tumanlariga ham suv yetkazib berilishi belgilandi.

Taqdimotda hududlardagi eng dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan aniq vazifalar ko‘rsatib o‘tildi. Jumladan, 513 ta mahallaga markazlashgan ichimlik suvni olib borish, yana 3 mingta mahallada ta’minot sifatini yaxshilash zarurligi ta’kidlandi.

Ichimlik suvni xonadongacha yetkazish ishlarini to‘liq yakunlash masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Shu maqsadda 232 mingta

suv kolonkasi o‘rniga tarmoqlarni bevosita uylargacha tortish ko‘zda tutilgan.

Yil yakuniga qadar umumiy qiymati 600 million dollarlik ishlar amalga oshirildi. Ularning doirasida 1,6 ming kilometr ichimlik suv va 387 kilometr kanalizatsiya tarmog‘i, 80 ta suv hamda 29 ta oqova suv inshooti quriladi.

Natijada 107 ta mahalladagi 310 ming aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlanadi, 453 ta mahallada istiqomat qiluvchi 2,5 million aholi uchun suv ta’minoti yaxshilanadi.

Qashqadaryo viloyatida “Hisorak” suv omboridan ichimlik suv olib kelish loyihasini jadallashtirish vazifasi qo‘yildi. Qiymati 217 million dollar bo‘lgan ushbu loyiha Qamashi, G‘uzor va Qarshi tumanlari hamda Qarshi shahridagi 1,1 million aholining ichimlik suv ta’minotini yaxshilash imkonini beradi.

Mutasaddilarga loyihaning texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari ekspertizasini qisqa muddatda yakunlash va moliyalashtirish manbasini aniqlash topshirildi.

Shuningdek, Farg‘ona, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida ichimlik va oqova suv tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha qarz va grant bitimlarini imzolash, poytaxtda yangi kanalizatsiya inshootini qurish loyihasi yuzasidan yakuniy xulosa kiritish vazifalari belgilandi.

1-sentyabrga qadar umumiy qiymati 317 million dollarlik 6 ta loyiha bo‘yicha xorijiy hamkorlar bilan muzokaralarni yakunlash va moliyalashtirish manbalarini belgilash zarurligi qayd etildi.

Suv ta’minoti korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalasi ham muhokama qilindi. Amaldagi tariflar xizmatlarning haqiqiy tannaxrini to‘liq qoplamayotgani, hududlar kesimida keskin farqlar mavjudligi sohaning investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani ta’kidlandi.

Shu munosabat bilan ichimlik suvni ishlab chiqarish va iste’molchilarga yetkazib berish vazifalarini ajratish, Magistral suv ta’minoti korxonasini tashkil etish taklif qilindi. U hududiy korxonalarga ichimlik suvni yagona ulgurji tarif asosida yetkazib beradi.

O‘ZA

YURTDOSHLARIMIZ CHEHRASIDAGI MAMNUNLIK

800 ga yaqin mahallada qariyb 8 million aholi ilk bor ichimlik suv bilan ta’minlandi

Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida kechayotgan shiddatli islohotlar markazida, avvalo, inson qadrlari ulug‘lash, yurtdoshlarimiz uchun munosib turmush sharoiti yaratish, farovonligini oshirish maqsadi turar ekan, bunda shubhasiz, aholini toza ichimlik suv bilan ta’minlash masalasi ustuvor ahamiyatga ega.

Kuni kecha Prezidentimiz ichimlik va oqova suv xizmatlarini yanada yaxshilash chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishar ekan, ayni jihatga alohida e’tibor qaratdi. Davlatimiz rahbari keyingi yillarda erishilgan natijalarni tahlil qilish bilan birga ushbu yo‘nalishda loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish, mavjud muammolarni o‘z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish bo‘yicha vazifalarni belgilab berdi.

Bu bejiz emas, albatta. Zero, bugungi kunga kelib suv insoniyat oldida turgan eng muhim strategik masalalardan biriga aylandi. Bir paytlar tabiatning tuganmas ne’mati sifatida qabul qilingan boylik



Ortga qaytmas islohotlar



bugun davlatlarning iqtisodiy qudrati, ekologik barqarorligi va aholi farovonligini belgilashda hal qiluvchi o‘rin tutmoqda. Iqlim o‘zgarishi, suv zaxiralarining qisqarishi va unga bo‘lgan ehtiyojning muttasil o‘rtishi dunyo hamjamiyatini mavjud resurslarga mutlaqo yangi nigoh bilan qarashga

undayapti. Ana shunday sharoitda suvni boshqarish masalasi alohida tarmoq vazifa bo‘lib qolmay, mamlakatning buguni va kelajagini belgilaydigan muhim yo‘nalish sifatida namoyon bo‘layotir.

Davomi 2-beta

Xalqaro hamkorlik

PREZIDENTLAR ISHONCHI BILAN
BELARUSDA OCHILGAN YANGI ESHIKyoxud strategik sheriklik qanday qilib mehnatni daromadga,
yerni hosilga va do‘stlikni ikki xalq farovonligiga aylantirmoqda?Ibrohim ABDURAHMONOV,
O‘zbekiston Respublikasi qishloq
xo‘jaligi vaziri,
akademik

Boshlanishi 1-betda

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Aleksandr Lukashenko o‘rtasidagi ochiq, samimiy va amaliy muloqot esa ikki mamlakat munosabatlariga yangi ruh olib kirdi. Buni rasmiy uchrashuvlarning iliq muhitidagina emas, ulardan keyin qabul qilingan aniq qarorlarda ham ko‘rish mumkin.

Belarus Prezidenti ushbu ishlarni O‘zbekiston rahbariga bergan va‘dasining ijrosi sifatida ochiq ifodalab, o‘zbekistonlik fuqarolar Belarusga kelganda o‘zlarini begona his qilmasligi, ular uchun munosib turar joy sharoitlari yaratilishi, farzandlari belaruslik bolalar bilan teng sharoitda bog‘cha va maktablarga borishi kerakligini ta’kidladi. Bu yondashuv “ishchi kelsin, ishini qilib ketsin”, degan eski qarashdan ancha yiroq: bu yerda insonning faqat mehnati emas, oilasi, farzandi, uyi, ijtimoiy himoyasi va jamiyatdagi qadri haqida gap ketmoqda. Kuzatishimcha, O‘zbekiston va Belarus munosabatlari tarixida mehnat, tadbirkorlik, agrar ishlab chiqarish, uy-joy va oilaviy ijtimoiy moslashuvni bir butun tizim sifatida ko‘radigan bunday keng imkoniyat ilgari bu darajada kun tartibiga qo‘yilmagan edi.

Tashrifning yana bir muhim jihati shundaki, qabul qilingan qarorlar uzoq muhokamalar orasida qolib ketmadi. Hujjatlar imzolalanishi bilan hududlar, vazirliklar, tadbirkorlar va mutaxassislar aniq loyihalar ustida ish boshladi.

Andijon va Vitebsk o‘rtasidagi hamkorlik, yangi chorvachilik majmualari, fuqarolarni tashkiliy asosda ishga joylashtirish va logistika yo‘nalishidagi ishlar siyosiy ishonchning qisqa vaqt ichida amaliy harakatga aylanayotganini ko‘rsatmoqda.

Bir tomonda imkoniyat,
ikkinchi tomonda tashabbus

Hamkorlikning iqtisodiy mantig‘i juda sodda. Bir mamlakatda qishloq xo‘jaligi yerlari, chorvachilik obyektlari, ishlab chiqarish binolari, texnika, texnologiya va bozor mavjud, ayrim hududlarda mehnat resurslariga ehtiyoj seziladi. Ikkinchi mamlakatda esa yer bilan ishlashni, chorva boqishni, dehqonchilik qilishni va tadbirkorlikni uddalaydigan mehnatkash odamlar bor. Bunday vaziyatda ikki imkoniyatni birlashtirish tomonlar uchun tabiiy va manfaatli yechimga aylanadi.

Belarusda investitsiya loyihalarini joylashtirish uchun sanoat obyektlari, davlat mulki va keng qishloq xo‘jaligi maydonlari taklif etilmoqda. Mamlakat hududining qariyb 40 foizi, ya’ni 8 million gektarga yaqin qismi qishloq xo‘jaligi yerlaridan iborat. Ayni paytda, ayniqsa, Vitebsk va ayrim boshqa hududlarda ishchi kuchiga ehtiyoj yuqori.

O‘zbekistonda esa yangi kasb va barqaror daromad izlayotgan minglab fuqarolar, shuningdek, xorijda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga tayyor tadbirkorlar bor. Bu yerda bir tomon ikkinchisiga yordam berayotgani yo‘q: ikki

ehtiyoj o‘zaro manfaatli yechimda uchrashmoqda. Belarus yer, bino, infratuzilma, texnologiya, texnika, urug‘ va ilmiy-amaliy ko‘mak bilan, O‘zbekiston esa mehnat, tashabbus, investitsiya, tadbirkorlik va bozor bilan ishtirok etadi. Natijada mavjud obyektlar ishga tushadi, yer hosil beradi, qishloqda iqtisodiy hayot jonlanadi, odam daromad topadi va ikki mamlakat bozoriga yangi mahsulot chiqadi. Shu ma’noda, yer mehnatni, mehnat esa yerni izlab topmoqda.

Bu oddiy
mehnat migratsiyasi emas

Tashrif doirasida O‘zbekiston fuqarolarini Belarusda vaqtinchalik mehnat faoliyatiga uyushgan tartibda jalb qilish to‘g‘risida alohida bitim qabul qilindi. Bu hujjat mehnat munosabatlarini tasodifiy vositachilar yoki og‘zaki va‘dalar orqali emas, davlatlar o‘rtasida kelishilgan qonuniy mexanizm asosida tashkil qilish uchun huquqiy poydevor yaratadi.

Hozirning o‘zida Andijon viloyatidan 255 fuqaro Vitebsk viloyatiga uyushgan tartibda borib, ish bilan ta’minlandi. Ular orasida tajribali fermerlar, tadbirkorlar va yangi kasb izlayotgan yoshlar bor — har birining ortida oila va kelajakka umid turibdi. Birinchi bosqichda Vitebsk va boshqa hududlardagi 13 ta korxonaga 1100 fuqaroni tanlov asosida joylashtirish, sentyabr oyidan boshlab har oy 500 nafardan, jami 5 ming andijonlikni ish bilan ta’minlash rejalashtirilgan.

Vitebsk shahrida O‘zbekiston Migratsiya agentligi vakolatxonasini ochish ham ko‘zda tutilmoqda. Andijon va Vitebsk o‘rtasida shakllanayotgan hamkorlikni faqat ikki hudud doirasidagi tajriba deb qaramaslik kerak. Bu O‘zbekistonning boshqa viloyatlarini Belarus hududlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘laydigan amaliy modelning boshlanishidir. Har bir hudud tadbirkorlari, mehnat resurslari, mahsuloti va tashabbusi bilan chiqadi, Belarus tomoni esa aniq obyekt, yer, infratuzilma va mahalliy hamkorlarni taklif qiladi. Shu tariqa davlatlarga munosabatlari poytaxitlar o‘rtasidagi muloqotdan hududlar, korxonalar va odamlar o‘rtasidagi kundalik hamkorlikka aylanadi.

Fuqarolar qishloq xo‘jaligi bilan birga qurilish, sanoat, xizmat ko‘rsatish sohalarida va ayrim tibbiy yordamchi yo‘nalishlarda ham ishlashi mumkin. Belarus rahbari tomonidan oilalar uchun uy-joyni ta’minlash yoki yangidan qurish, bolalarning maktabgacha ta’lim va maktab tizimiga kirishi uchun teng sharoit yaratish masalasi shaxsan qo‘yildi. Ammo kelishuvlar ishnig boshlanishi, xolos. Inson manfaati haqiqatan ta’minlanishi uchun har bir fuqaro yo‘lga chiqishidan oldin ish joyi, kasbi, oylik ish haqi, ish vaqti, yashash sharoiti, ovqatlanish, transport, mehnat muhofazasi va qaytish shartlari yozma mehnat shartnomasida aniq belgilanishi zarur.

Shuning uchun Prezidentimiz fuqarolar ro‘yxatini shakllantirib, ish joyi va yashash sharoitini Belarus tomoni bilan oldindan kelishgan holda tashkil qilishni qat’iy belgiladi. Migratsiya agentligi vakolatxonasining vazifasi ham faqat odam yuborishi emas, balki ularning mehnat sharoitini nazoratga olish, murojaatlarini tezkor ko‘rib chiqish va huquqlarini himoya qilish bo‘lishi kerak. Chunki biz ish o‘rni yaratamiz deb insonning kundalik hayotiym manfaatlarini nazoratsiz qoldirishga haqli emasmiz. Yangi hamkorlik modeli, avvalo, inson qadriga asoslangan mehnat modeli bo‘lishi shart.

Ish o‘rni — kambag‘allikni
qisqartirishning eng
ta’sirchan yo‘li

Kambag‘allikni nafaqa yoki bir martalik yordam bilan vaqtincha yengillatish mumkin. Ammo suv va yer resurslarimiz cheklangan. Albatta, birinchi vazifamiz — yerimizdan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish va ichki ishlab chiqarishni ko‘paytirish.

Ammo zamonaviy oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat chegarasi ichida yetishtirilayotgan mahsulot bilan birga ishonchli hamkorlik, diversifikatsiyalangan ta’minot, xorijdagi qo‘shma ishlab chiqarish, logistika va bozorlarga

beradi. Bugun ishchi sifatida borgan inson ertaga malakali mutaxassis, brigadir, texnolog yoki tadbirkor bo‘lib yetishishi mumkin. Demak, bu tashabbus mehnat orqali inson kapitalini rivojlantirish dasturiga ham aylanadi.

Fuqaro uyushgan, qonuniy va himoyalangan tartibda ishlasa, daromadi oillasiga, farzandlar ta’limiga, uy-joyiga va kichik biznesiga sarflanadi. Bir ish o‘rni ortida ko‘pincha bir oilaning turmushi, bir mahallaning xarid qobiliyati va yangi tadbirkorlik imkoniyati turadi. Shu bois, Belarusda yaratilgan munosib ish o‘rning iqtisodiy samarasi O‘zbekistondagi xonadonga, mahallaga va ichki bozorga ham qaytib keladi.

Yer Belarusda, mahsulot
ikki xalq uchun

Hamkorlikning yanada muhim va o‘ziga xos tomoni — o‘zbekistonliklar Belarusga faqat boshqa bironing korxonasida ishlash uchun bormaydi. Ularga o‘z agrobiznesini tashkil qilish, qishloq xo‘jaligi obyektlari va yerlardan foydalanish imkoniyatlari ham taqdim etilmoqda.

Vitebsk viloyatining yetitta tumanida 10 ta qoramol boqish obyekti va 8 ming gektar yerni o‘zbek tomoni ishtirokida ishga tushirish bo‘yicha kelishuv mavjud. U yerda yetishtirilgan go’shtni O‘zbekistonga yetkazib berish rejalashtirilgan.

Beshkenovichi tumanida esa kartoshka yetishtirish uchun yana 2 ming gektar yer, mahsulot qashqir infratuzilmasi, urug‘lik va texnologik ko‘mak taklif etilmoqda. Kengroq agrar loyihalar portfelida Minsk, Vitebsk, Mogilyov va Grodno viloyatlarida o‘zbek tadbirkorlari ishtirokida 65 ming gektar maydonda 35 ming bosh qoramolga mo‘ljallangan chorvachilik komplekslarini tashkil etish kabi yirik tashabbuslar ham ishlab chiqilgan.

Bu modelda O‘zbekiston fuqarosi faqat yollanma ishchi bo‘lib qolmay, mahsulot yaratuvchi, investor va tadbirkor sifatida ishtirok etadi. Belarus o‘zining yer, bino, texnika va ilmiy salohiyatini iqtisodiy aylanmaga yanada keng kiritadi, qishloq hududlarida ishlab chiqarish va aholi bandligi kengayadi. O‘sha yerda yurtoshlarimiz ishtirokida yetishtirilgan go’sht, kartoshka, sut va boshqa mahsulotlarni O‘zbekistonga yuborish imkoniyati paydo bo‘ladi. Biz tayyor mahsulotni faqat sotib oluvchi emas, uni yetishtirish, qayta ishlash va yetkazib berish zanjiri ishtirokchisiga aylanamiz. Yer Belarusda bo‘ladi, ammo unga o‘zbek mehnati, sarmoyasi va tadbirkorligi ham singadi, hosil esa ikki xalq dasturxoniga xizmat qiladi.

O‘zbekiston aholisi o‘sib, go’sht, sut, kartoshka, bolalar ozuqasi va boshqa sifatl mahsulotlarga talab yil sayin ortib bormoqda. Ammo suv va yer resurslarimiz cheklangan. Albatta, birinchi vazifamiz — yerimizdan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish va ichki ishlab chiqarishni ko‘paytirish.

Ammo zamonaviy oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat chegarasi ichida yetishtirilayotgan mahsulot bilan birga ishonchli hamkorlik, diversifikatsiyalangan ta’minot, xorijdagi qo‘shma ishlab chiqarish, logistika va bozorlarga

kirish imkoniyatlarini ham talab qiladi. Suv va ozuqa bazasi mavjud hududda qoramol boqib, go’shtni o’sha yerda qayta ishlash, kelishilgan tartibda O‘zbekistonga yetkazish ichki tabiiy resurslarimizga tushadigan bosimni yumshatishga va oziq-ovqat ta’minoti barqarorligini oshirishga yordam beradi. Bu boshqa davlat resurslaridan bir tomonlama foydalanish emas, balki qonun, investitsiya, ijara, mehnat va o‘zaro iqtisodiy manfaatga asoslangan zamonaviy agrar kooperatsiyadir. Mana shu — strategik sheriklikning amaliy iqtisodiyoti.

Hamkorlik kecha
boshlangan emas

Bugungi yangi bosqich bo’sh joyda paydo bo‘lgani yo‘q. Uning ortida so‘nggi yillarda shakllangan ishonch va amaliy tajriba bor. Ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash so‘nggi besh yilda qariyb uch barobar o‘sib, o‘tgan yil yakunida salkam 1 milliard dollarga yetdi. Joriy yil boshidan o‘zaro savdo yana 30 foiz ko‘paydi. Bugun ikki mamlakat ishtirokida 360 ta qo’shma korxona faoliyat yuritmoqda. Tomonlar umumiy savdo hajmini 2 milliard dollarga, agrar va oziq-ovqat mahsulotlari savdosini esa 2030-yilgacha 1 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni kelishib oldilar.

O‘zbekiston Belarusga yangi va qayta ishlangan meva-sabzavot, uzum, poliz mahsulotlari, dukkaklilar, yong‘oq va quruq mevalar yetkazib berishi mumkin. Belarus esa O‘zbekiston bozoriga naslli mol, go’sht, parranda mahsuloti, sariyog‘, quruq sut aralashmalari, bolalar ozuqasi va talab yuqori boshqa mahsulotlarni taklif etadi.

Toshkent viloyatida Belarusning “Servolux Group” kompaniyasi ishtirokida to‘liq siklli parrandachilik klasterini tashkil etish ham hamkorlikning amaliy namunasidir. Unda inkubatsiya, broyler yetishtirish, ozuqa ishlab chiqarish, so‘yish, qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish yagona zanjirda birlashtirilmoqda. Loyiha to‘liq quvvatga qanqach, minglab yangi ish o‘rinlari yaratilishi, ichki bozor to‘yintirilishi va Markaziy Osiyo bozorlariga eksport yo‘lga qo‘yilishi ko‘zda tutilgan.

Endi bu tajriba parrandachilikdan chorvachilikka, kartoshka urug‘chiligidan rezavorchilikka, bolalar ozuqasidan logistikagacha bo‘lgan keng hamkorlik tizimiga aylanmoqda.

Kartoshkadan bolalar
ozuqasigacha

Belarus kartoshka urug‘chiligi, sut va go’sht chorvachiligi, oziq-ovqat mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, veterinariya, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi va agrar ilm-fan sohalarida kuchli ilmiy-amaliy maktabga ega. Avvalgi yillarda Belarus seleksiyasiga mansub kartoshkaning beshta navi hududlarimizda sinovdan o‘tkazildi. Istiqbolli “Liliya” va “Yuliya” navlari “in-vitro” usulida ko‘paytirilib, Toshkent, Andijon, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida ekildi hamda ularning yuqori avlod urug‘lik materiallari tayyorlandi.

Bu galgi tashrif davomida hamkorlar bilan Belarusning yangi elita kartoshka navlari, jumladan, “Pershasvet”ni O‘zbekiston sharoitida mahalliyashtirish bo‘yicha kelishib oldik. Shu bilan birga, endi kartoshkani Belarus hududida o‘zbek tadbirkorlari ishtirokida yetishtirish, urug‘lik materiallari va ilg‘or agrotexnologiyalardan birgalikda foydalanish uchun ham yangi imkoniyatlar ochilmoqda.

Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik ilmiy-tadqiqot instituti negizida Belarus tajribasi asosida rezavor mevalar, jumladan, “jimolost” yetishtirish bo‘yicha tajriba-namoyish maydonlarini kengaytirish va dastlab 10 gektarda 33 ming dona ko‘chat yetishtirish rejalashtirilmoqda. Belarusning “Bellakt”, “Gamma vkusa” va boshqa korxonalari bilan O‘zbekiston bozori uchun bolalar ozuqasi, sut, yog‘, tvorog, pishloq va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda.

Bu hamkorlik bolalar ozuqasi sifati, retsepturasi, xavfsizligi va xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan to‘liq texnologiyani o‘rganish imkonini beradi. Oziq-ovqat xavfsizligi haqida gapirganda, mahsulot miqdori bilan birga uning sifati, bola va ona salomatligi uchun ahamiyatini ham o‘ylashimiz kerak.

Katta ilmiy
agrar salohiyat

Ushbu tashrif davomida Belarus Milliy fanlar akademiyasi rahbariyati, agrar soha mutasaddilari va ilmiy tashkilotlar vakillari bilan qator uchrashuvlarda qatnashdim. Muzokaralarda yana bir narsaga amin bo‘ldim: Belarus bilan hamkorlikning eng katta qiymati yer, mol va texnika bilan cheklanmaydi. Uning muhimligi yillar davomida shakllangan ilm-fan, seleksiya, urug‘chilik, veterinariya, mexanizatsiya va agrar ta’lim maktabidir.

Belarus Milliy fanlar akademiyasining Jodino shahridagi Yerchilik bo‘yicha ilmiy-amaliy markazi ekinlar seleksiyasi, elita urug‘lar, genetik resurslar, resursetjamkor agrotexnologiyalar va aniq dehqonchilik bo‘yicha muhim tajribaga ega. O‘zbekistonning O‘simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti va Milliy genbanki vakillarining ushbu markaz bilan genetik resurslarni yig‘ish, o‘rganish, saqlash va ulardan foydalanish bo‘yicha hamkorligi avvaldan boylangan.

Endi qoramol genetikasi, yuqori mahsuldor golshin, simmental, belarus qizil, gereford va angus zotlari bilan ishlash, fermer xo‘jaliklarida bioxavfsizlikni ta’minlash, sun’iy urug‘lantirish texniklarini tayyorlash va mutaxassislar malakasini oshirish bo‘yicha qo’shma dasturlar ishlab chiqish rejalashtirilmoqda. Bu jarayonda “Belplemjivobyedineniye” hamda Vitebsk davlat veterinariya meditsinasi akademiyasi ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

Toshkent davlat agrar universiteti, Belarus oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-amaliy markazlari ishtirokida professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar almashinuvi, qo’shma

konferensiyalar, seminarlar, dala namoyishlari va malaka oshirish kurslarini o‘tkazish ham rejaqa kiritilgan. Bu yerda eng muhim tamoyil shuki, ilmiy hamkorlik faqat olimdan olimga yoki maqoladan maqolaga o‘tmasligi kerak. U laboratoriyadan fermaga, fermadagi natijadan ishlab chiqarishga, ishlab chiqarishdan esa bozor va inson daromadiga yetib borishi shart. Chunki haqiqiy ilm hayotga kirgan ilmdir.

Texnologiya va yangi bozorlar
maktabi

Belarusda ishlash yoki tadbirkorlik qilish o‘zbekistonlik mutaxassislar uchun boshqa iqlim, ishlab chiqarish madaniyati va texnologik muhitni o‘rganish imkonini ham beradi. U yerda chorvachilik binolarida avtomatlashtirish, ozuqa ratsionini aniq hisoblash, naslni nazorat qilish, sut va go’sht sifati, sovuq zanjir, veterinariya nazorati, mahsulotni saralash, qadoqlash va qayta ishlashga katta e’tibor beriladi. Bunday muhitda ishlagan inson faqat bir amalni emas, urug‘ yoki genetik materialdan boshlanib, parvarish, veterinariya, ozuqa, mahsulot, qayta ishlash, sifat nazorati, qadoqlash, logistika va bozorgacha yetadigan butun ishlab chiqarish zanjirini ko‘radi. Keyin bu bilim O‘zbekistonga qaytadi.

Belarus biz uchun mahsulot va ish o‘rnidan tashqari agrar texnologiya, kadrlar tayyorlash va sanoatlashgan qishloq xo‘jaligini o‘rganish mumkin bo‘lgan muhim hamkordir. Bugun bizga tayyor texnika yoki uskuna sotadigan sherikning o‘zi yetarli emas. Biz texnologiyani birgalikda o‘zlashtiradigan, ishlab chiqarishni mahalliyashtiradigan, muhandis va texnologlarni tayyorlaydigan, servis va ehtiyot qismlar tizimini yaratadigan hamkorlarga muhtojmiz. Belarusning kuchli muhandislik maktabi, mashinasozlik, agrar mexanizatsiya va uzoq muddatli ishlab chiqarish kooperatsiyasi borasidagi tajribasi aynan shu jihatdan muhim. Haqiqiy hamkorlik tayyor mahsulotni sotib olishdan uni qanday yaratishni birgalikda o‘rganishga o‘tganda boshlanadi.

Yangi logistika markazlari, to‘g‘ridan to‘g‘ri blok-poyezdlar va savdo uylari ikki mamlakat mahsulotlarini tezroq va arzonroq yetkazish, keyinchalik boshqa bozorlarga chiqish uchun yangi ko‘priklar bo‘lishi mumkin. Orsha stansiyasida eksport-import yuklari uchun intermodal logistika markazini ishga tushirish va to‘g‘ridan to‘g‘ri blok-poyezdlar qatnovini yo‘lga qo‘yish vazifasi belgilangan.

Raqamlar ortida odamlar va
mas’uliyat bor

Tashrif va unga tayyorgarlik jarayonida yirik iqtisodiy portfel shakllantirildi. Umumiy qiymati qariyb 2 milliard dollarlik 310 ta loyiha va chora-tadbiri amalga oshirish rejalashtirilgan. Ular orasida qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik, farmatsevtika, to‘qimachilik, yog‘ochni qayta ishlash, tibbiyot va boshqa sohalar bor.

Batafsil hamkorlik dasturida agrar sohaning o‘zida 53 ta, umumiy qiymati 424 million dollardan ziyod loyiha shakllangan. Bu raqamlarning mazmuni amalda ochiladi: loyihalar yangi ish o‘rinlari yaratib, oilalar daromadini oshirsa, minglab gektar yerni iqtisodiy aylanmaga kiritisa, mutaxassislarga yangi bilim va malaka bersa hamda sifatl oziq-ovqat mahsulotlarini xalqimiz dasturxoniga ishonchli va maqbul narxlarda yetkazsa, 424 million dollar ishga tushgan fermaga, mahsulot berayotgan yerga va barqaror daromadga aylanadi.

Ikki Prezident siyosiy iroda bilan katta imkoniyat yaratdi. Endi vazirliklar, hokimliklar, agentliklar, banklar, tadbirkorlar, olimlar va migratsiya tuzilmalarining vazifasi bu imkoniyatni aniq natijaga aylantirish, ya’ni ochilgan eshik oldida odamlarni kutib qoldirmaslikdir. Har bir kelishuv aniq loyihaga, har bir loyiha esa amaliy biznes reja, belgilangan yer yoki ishlab chiqarish obyekti, moliyalashtirish manbai va bozorga ega bo‘lishi lozim. Har bir ish o‘rni yozma shartnoma va munosib mehnat sharoiti bilan ta’minlanishi, har bir ilmiy dastur dala yoki fermada ko‘rinadigan natijaga aylanishi shart. Zero, Prezidentimiz ana shunday talab qo‘ydi. Bu talab to‘g‘ri: ishonch imkoniyat yaratadi, natijani esa intizom, hisob-kitob va mas’uliyat ta’minlaydi.

Endi natija o‘zimizga bog‘liq

Bu tashrif ikki mamlakat imkoniyatlarini birlashtiradigan tarixiy asos yaratdi. Endi rejalarni iqtisodiy jihatdan puxta hisoblash, fuqarolarni kasb va til bo‘yicha tayyorlash, mehnat shartnomalarini doimiy nazorat qilish, tadbirkorlarga moliyaviy va huquqiy yordam berish, mahsulot sifati va logistikasini ta’minlash zarur. Kelishuvlar qanchalik yirik bo‘lmasin, ularning samarasi bajarish intizomi va odamlar manfaatiga qanchalik xizmat qilishiga bog‘liq.

Eng murakkab bosqich ikki davlat rahbarining siyosiy irodasi, shaxsiy ishonchi va xalqlarimiz kelajagiga mas’uliyat munosabati bilan bu imkoniyatni yaratish ehti. Endi uni halol mehnat, aniq hisob-kitob va intizom bilan rivojlantirishimiz, yerni hosilga, hosilni mahsulotga, mahsulotni daromadga, daromadni esa inson farovonligiga aylantirishimiz kerak. Do’slikning haqiqiy hosili odamlar hayotida namoyon bo‘ladi. U munosib ish haqi olayotgan mehnatkashda, yangi kasb va zamonaviy texnologiyani o‘rganayotgan yoshda, farzandini maktabga xotirjam kuzatayotgan oilada, qayta ishga tushgan fermada va bozorga chiqarilgan sifatl mahsulotda ko‘rinadi. Eng muhimi, u ikki xalq dasturxoniga farovonlik, oilalariga esa ishonchli kelajak olib kelishi kerak.

Belarusdagi yangi eshik ochildi. Endi bu eshikdan ishonch bilan, ammo hisob-kitob, intizom va inson qadriini ustun qo‘ygan holda kirishimiz kerak.



Shamsiddin ALLAYAROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti kafedra mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

O‘zbekistonda startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash keyingi o‘n yilda boshlanganiga qaramay, bu borada uncha-muncha davlat bilan raqobatlasha oladigan darajaga yetdik. Yangi g‘oya va loyihalarning faol moliyalashtirilishi ortidan yuzlab bizneslar paydo bo‘layotgani, ko‘plari xalqaro darajada faoliyat yuritayotgani buning misoli. Bu boradagi raqamlar, ko‘rsatkichlar ancha baland. Natijalar esa xalqaro reytinglarda ham yaqqol aks etyapti.

Shu kunlarda startaplar, ventchur investitsiyalar va texnologik ekotizimlar bo‘yicha dunyoning yetakchi tahliliy platformalaridan biri — Dealroom.co tomonidan 2026-yilning yarim yillik hisoboti e‘lon qilindi. Natijalarga ko‘ra, O‘zbekiston ventchur investitsiyalar hajmining yillik o‘sish sur‘ati bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinni egalladi. Ma‘lumotlarda bildirilishicha, oxirgi bir yilda yurtimizga kiritilgan ventchur investitsiyalar hajmi 539,7 foiz oshgan. Ushbu natija bilan mamlakatimiz Keniya, Avstriya, Xitoy va AQSH kabi davlatlarni ortda qoldirib, global reytingda yetakchilikni qo‘lga kiritdi.

Bu oddiy raqamlar emas. Mazkur xalqaro natija O‘zbekistonda innovatsion ekotizimni rivojlantirish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda texnologik tadbirkorlik uchun yaratilayotgan qulay muhitning amaliy samarasini yaqqol namoyon etadi. Qolaversa, mamlakatimizning Markaziy Osiyoda innovatsiyalar va texnologik tadbirkorlik bo‘yicha yetakchiga aylanib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bu qanday sarmoya?

Venchur atamasi tavakkalchilikka asoslangan yangi tashabbus, istiqbolli, biroq natijasi oldindan kafolatlanmagan loyiha ma‘nolarini anglatadi. Amaliyotda ventchur investitsiyalar yuqori o‘sish salohiyatiga ega, innovatsion mahsulot yoki xizmat yaratishga intilayotgan, ammo hali barqaror daromad, yetarli garov yoki uzoq yillik moliyaviy tarixga ega bo‘lmagan kompaniyalarga

O‘zbekiston ventchur investitsiyalarni jalb qilishning boshlang‘ich va o‘rta bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tmoqda. Buni yuqoridagi xalqaro reytinglar ham ko‘rsatib turibdi. Endi navbat global miqyosdagi yetuk ventchur markaziga aylanishga intilishdir.

O‘zbekiston ventchur investitsiyalarning o‘sishi bo‘yicha jahon reytingida birinchilikni egalladi

Bugun g‘oya zamonaviy taraqqiyotning eng qimmat resurslaridan biri. Istiqbolli loyihani moliyalashtirib, real biznesga aylantirishga intilayotgan kompaniyalar talaygina. Dunyo investitsiya bozorida ham bu yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlar tobora ortib bormoqda. Hatto jahon iqtisodiyotida mamlakatlarning raqobatbardoshligi faqat ishlab chiqarish quvvatlari emas, balki ilmiy ishlanma, texnologik yechim va ularni qisqa muddatda millionlab iste‘molchilarga yetkazish xususiyati bilan o‘lchanyapti.

moliyaviy mablag‘ kiritish shakli sanaladi. Asosan zamonaviy axborot texnologiyalari, sun‘iy intellekt, “yashil” energetika, biotexnologiya va finteks kabi sohalardagi endi ish boshlayotgan startaplar ventchur sarmoyaga muhtoj bo‘ladi.

Ya‘ni investor aynan g‘oyaga pul tikadi va uni biznesga aylantiradi. Ventchur investitsiyaning muhim jihati shundaki, unda sarmoyador startap kompaniyaning bugungi moddiy holatidan ko‘ra kelajakdagi o‘sishini baholaydi. Innovatsion iqtisodiyotda qiymat yaratishi mumkin bo‘lgan loyihalar dastlabki davrda yuqori noaniqlikka ega bo‘ladi. Masalan, yangi dori, sun‘iy intellekt platformasi yoki birot texnologiya bozorga chiqqunga qadar sinov jarayonidan o‘tishi uchun vaqt kerak. Natijada loyiha birdaniga foyda bermasligi, ammo muvaffaqiyatli amalga oshirilgach, butun bir tarmoqni o‘zgartirib yuborishi mumkin. Ana shu jihatlarni investor to‘g‘ri baholab, moliya kiritishi kerak bo‘ladi. Shu bois, ventchur kapital innovatsion iqtisodiyotning o‘ziga xos “kislorod”idir. Kapital bo‘lmasa, iste‘dodli yoshlarning g‘oyasi tajriba darajasida qoladi, bozor, mentor va investor bo‘lmasa, ilmiy ishlanma laboratoriyadan tashqariga chiqmaydi.

O‘zbekistonda yillar davomida yangi loyihalar deyarli amalga oshirilmagani, sohalar eskicha tizimda ishlangani, g‘oyalar qog‘ozlardagina qolib ketgani boisi shunda — moliyalashtirilmagani. Bugun esa bari aksincha. Talabgorlar, investorlar mablag‘ kiritishga tayyor, shunga yarasha innovatsion va ilmiy ishlanmalar ham talaygina.

Ularining aksariyati loyihalarga aylanib, startaplar shaklida hayotimizga kirib bormoqda.

Ya‘ni oxirgi o‘n yilda O‘zbekistonda ventchur bozori shakllandi. To‘g‘ri, bu hali AQSH, Xitoy, Buyuk Britaniya, Singapur darajasida emasdir, biroq o‘sish tendensiyasi ancha baland. Birgina misol. 2024-yilda yurtimizdagi faol startaplar soni 400 tadan oshib, mavjud olitva ventchur fondning jami kapitali 54 million dollardan ortgan. 2025-yilga kelib, fondlar soni to‘qqiztaga, kapitali esa 120 million dollardan ziyodga yetdi. O‘tgan yil yakunlari bo‘yicha e‘lon qilingan hisobotlarda yurtimizda startaplarga yo‘naltirilgan sarmoyalar hajmi keskin oshib, ventchur investitsiyalarning katta qismi sun‘iy intellekt, elektron tijorat, dasturiy ta‘minot xizmatlariga to‘g‘ri kelgani aytiladi. Milliy startap ekotizim portalining joriy yilgi qaydlarida esa 527 ta startap, 618,4 million dollarlik moliyalashtirish raqamlari ko‘rsatilgan. Xalqaro

“StartupBlink-2026” indeksida ham O‘zbekiston bu borada 19 pog‘ona yuqorilangani, Toshkent Markaziy Osiyodagi yetakchi startap shahri sifatida keltirilganini ko‘rish mumkin.

Ammo yangi loyihalarni moliyalashtirish ventchur investitsiyaning yagona ko‘rinishi emas.

Mamlakatimiz dengizlarga ikki davlat chegarasidan o‘tib chiqiladigan kam sonli yurtlardan. Shu bois, an‘anaviy tovarlarni uzoq bozorlarga olib chiqishda logistika xarajatlari sezilarli ahamiyatga ega. Raqamli mahsulot esa internet orqali bir vaqtning o‘zida o‘nlab mamlakatlarga eksport qilinishi mumkin.

O‘zbekiston sharoitida investitsiyaning bu turi bir qancha muhim vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, ventchur investitsiyalar iqtisodiyotning xomashyo va an‘anaviy ishlab chiqarishga bog‘liqligini kamaytirishga xizmat qiladi. Bunda dasturiy mahsulot, sun‘iy intellekt, finteks, elektron savdo, ta‘lim texnologiyasi yoki tibbiy platforma yaratish uchun yirik zavod qurish shart emas. Asosiy kapital bilim, ma‘lumot, algoritim va inson salohiyatidir. Bunday bizneslar yuqori qo‘shilgan qiymat hosil qiladi va transport xarajatlarga kamroq bog‘liq bo‘ladi.

Bu jihat O‘zbekiston uchun ayniqsa muhim. Mamlakatimiz dengizlarga ikki davlat chegarasidan o‘tib chiqiladigan kam sonli yurtlardan. Shu bois, an‘anaviy tovarlarni uzoq bozorlarga olib chiqishda logistika xarajatlari sezilarli ahamiyatga ega. Raqamli mahsulot esa internet orqali bir vaqtning o‘zida o‘nlab mamlakatlarga eksport qilinishi mumkin. Demak, ventchur kapital geografik cheklavlarni intellektual ustunlik bilan qoplash imkonini beradi.

Ikkinchidan, startaplar yuqori malakali va zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarni talab qiladigan ish o‘rinlari yaratadi. Dasturchi, ma‘lumotlar tahlilchisi, mahsulot menejeri, dizayner, muhandis, biotexnolog, marketing mutaxassisi va kibernetiklik eksperti kabi kasblarga talab oshadi. Natijada mehnat bozorida yuqori unumdorlikka ega yangi qatlam shakllanadi.

Uchinchidan, ventchur investitsiya ilm-fan va biznes o‘rtasidagi uzilishni qisqartiradi. Universitet va ilmiy markazlarda yaratilayotgan



Mahalliy ventchur bozorning real holati

Bugun mamlakatimiz ventchur investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan qator dastlabki shart-sharoitlarni yaratdi, biroq to‘laqonli, chuqur va xususiy kapital yetakchilik qiladigan ekotizimga aylanish uchun hali tizimli vazifalar mavjud. Shunga qaramay, ushbu yo‘nalishni rivojlantirishga imkoniyatlarimiz katta.

Avvalo, mamlakatda yosh va raqamli texnologiyalarga tez moslashuvchi aholi mavjud. Bu nafaqat arzon mehnat resursi, balki yangi texnologiyalarni faol iste‘mol qiluvchi katta ichki bozor borligini anglatadi. Ikkinchidan, AT infratuzilma yaratilgani hamda davlat tomonidan berilayotgan institutsional qo‘llab-quvvatlash ham asosiy ustunliklardan biri. Barcha hududlarda IT parklar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, akseleratsiya dasturlari va xalqaro vakolatxonalar mahalliy kompaniyalarning tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Qolaversa, IT parklar rezidentlari uchun ko‘plab soliq va ma‘muriy imtiyozlar mavjud.

Uchinchi jihat, davlat fondlarni bevosita moliyalashtirishdan “fondlar fondi” modeliga o‘tmoqda. Bu tizim alohida startaplarni tanlash o‘rniga, professional ventchur boshqaruvchilarga kapital beradi. Shu tariqa davlat mablag‘lari bozor tamoyillarini asosida, tajribali xususiy boshqaruvchilar orqali joylashtiriladi.

Qolaversa, xalqaro fondlar va akseleratorlarning O‘zbekistonga qiziqishi ortmoqda. Xorijiy fondning mahalliy bozorda vakolatxona ochishi yoki mahalliy fond bilan qo‘shma investitsiya mexanizmini yaratishi nafaqat kapital hajmi, balki investitsiya standartlarini ham oshiradi. Bundan tashqari, mahalliy bozorda muvaffaqiyatli texnologik kompaniyalar va real investitsiya bitimlari paydo bo‘lyapti. Investor uchun nazariy va‘dadan ko‘ra ishlayotgan mahsulot, real mijoz, eksport tushumi va muvaffaqiyatli “chiqish” misollari muhimroqdir. O‘zbekistonda bunday misollar soni oshgani sari xalqaro kapitalning ishonchi ham ortadi.

O‘zbekistonda startaplar

Hali quyosh uyg‘onmay turib, hovli va ko‘chalarni supurib orasta qilgan kelinlar o‘z yumushlari bilan andarmon. Xush kayfiyatda yangi kunni qarshi olishga oshiqdigan odamlar bir-biri bilan samimiy salom-alik qiladi. Ularning yuz-ko‘zidan bugunidan mamnunlik, ertasiga ishonch balqiydi. Bu manzara Toshloq tumani “So‘kchilik” mahalla fuqarolar yig‘inida umrguzaronlik qilayotgan yurtdoshlarimiz hayotidan kichik lavha.

Ular orasida 45 yoshli Abdulmalik Asqarovning ham alohida o‘rni bor. Qahramonimiz umumta‘lim maktabini tamomlab, bir muddat bog‘dorchilik xo‘jaligida ishladi. Suvay mehnatda qotgan yosh Abdulmalik hayotini sinqalarga toblandi. U ana shu yillar davomida halol mehnati va izlanuvchanligi tufayli el nazariga tushdi. Meva-sabzavot yetishtirib sotar ekan, sohaga chuqurroq kirib borishga intilayotgan, qadoqlab xorijga sotish bilan bog‘liq logistika zanjiri yo‘qligi daromaddan barakani qochiradi. O‘shanda pishiqchilik mavsumida aksariyat meva va sabzavotlar suv tekinga sotilgan.

Keyingi yillarda bu sohaga ham yangi nafas kirib keldi. Ish tizimi tubdan o‘zgardi. Intensiv bog‘lar yaratish, meva va sabzavot yetishtirish, qabul qilish, saqlash va sotishga keng yo‘l ochildi. Mazkur islohotlar yosh tadbirkorni yangi g‘oya, mas’adlar sari da‘vat etib, qulochini katta olishga undadi.

“Xurmo Export” mas’uliyati cheklangan jamiyati faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Shu tariqa aholi va bog‘dorchilik yo‘nalishidagi fermerlardan meva-sabzavot mahsulotlari qabul qilish, saralash va eksportga chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. O‘tgan yilning o‘zida umumiy qiymati 5 million 200 ming dollarlik gilos eksport qilindi. Bu qariyb 12 ming tonna mahsulot degani. Tadbirkor Rossiya, Arab davlatlari, Yevropa va Amerika bozorlariga sari mahsulotlar yetkazib bermoqda.

— Prezidentimiz bilan bo‘lib o‘tgan ochiq muloqotda, eksportyor sifatida issiqxona va zamonaviy logistika markazini tashkil etish uchun yer maydoni ajratishda yordam so‘ragandim, — deydi tadbirkor Abdulmalik Asqarov. — Taklifim qo‘llab-quvvatlanib, 50 gektar ekin maydoni ajratib berildi. Bu yerda zamonaviy logistika markazi tashkil etib, intensiv usulda organik bog‘ yaratdik. Organik mahsulotlar boshqalarga nisbatan qimmat bahoda sotiladi. Shu bois, ekologik muvozanatni va ekotizimni saqlash, sintetik mineral o‘g‘itlar, pestitsidlardan voz kechib, tabiiy mineralardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishga harakat qilaypmiz. Izlanishlarimiz besamar ketmadi. Nihollar rivoji avjida. Bog‘imizga 2024-yilda asos solgan edik. U kelgusi yilda hosilga kiradi. Ayni kunda AQSH va Fransiya “Xurmo” yorlig‘i bilan quritilgan mevalarni sotaypmiz.

Tadbirkor yil sayin faoliyat turini kengaytirib bormoqda. Hozir ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari faoliyatini yo‘lga qo‘ygan. Jumladan, So‘kchilik mahallasida umumiy ovqatlanish shoxobchasi, meva qabul qilish, saqlash, qadoqlash, eksportga chiqarish logistika markazi tashkil etildi. Qadoqlash qutilar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan, 50 dan ortiq doimiy ish o‘rni yaratildi. Bu yerda mehnat qilayotganlarning aksariyati ijtimoiy himoya reyestriga olingan yoshlar, xotin-qizlardan iborat.

— Ishga qabul qilinganimga bir yildan oshdi, — deydi Toshloq tumanidagi “Piyozechilik” mahalla fuqarolar yig‘ini fuqarosi Shukurali Erkinov. — Kuniga

Mamlakatdagi qo‘llovdan kuch olib

3 ming donadan ortiq plastmassa quti ishlab chiqaramiz. Ular yog‘och qutilarga nisbatan arzon, yengil va chidamli. Maoshimizni o‘z vaqtida olamiz. Namunalari ishchilar qo‘shimcha rag‘batlantiriladi.

Prezidentimizning tadbirkor va ishbiarmonlar bilan bo‘lib o‘tayotgan yuzma-yuz muloqotlari, soha rivoji yo‘lida qabul qilingan muhim hujjatlar, yaratilgan imtiyoz va imkoniyatlar bu boradagi qarashlar, ish tizimini butkul o‘zgartirdi. Sohaga ochiqchilik siyosati kirib keldi, elektron muhojot maydoni shakllandi. Ishlayman deganga barcha sharoit, imkoniyatlar bor. Dastlab kichik ishlardan boshlangan sa‘y-harakatlar katta loyihalarga yo‘l ochmoqda. Buni qahramonimiz ish faoliyati, hayot tarzi ham ko‘rsatib turibdi.

Tadbirkorlar davlat va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shayotgan, aholi farovonligini oshirish, hududlar obodligi yo‘lida samarali mehnat qilayotgan islohotchi sifatida qadrlanmoqda, — deydi A.Asqarov. — Biz ham shunga munosib holda halol mehnat qilib, baland marralarni zabt etish yo‘lida izlanishimiz



Sheroz QORABOYEV olgan suratlari.

kerak. Zaminimizda yetishtirilgan mevalar xaridorgir. Ammo bugungi bozor, iste‘molchi talabi ham tobora o‘zgarib, raqobat maydoni kengayib boryapti. Bu yangi navlar, meva turlari yetishtirishda ilm-fan yangiliklarini ko‘proq olib kirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilishni talab qilmoqda. Albatta, bu ish ko‘lamini rivojlantirish uchun barcha sharoit bor. Masalan, iyul oyidan boshlab, soliq ma‘murchiligi, bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida tadbirkorlarga yana bir qulaylik yaratildi. Hisobotlar elektron tizimga o‘tkazildi. Kredit olmoqchi bo‘lganlar bir necha bank takliflarini bir joyda ko‘rish, solishtirish va o‘ziga maqbul shartlarni tanlash imkoniyatiga ega. Joylarda raqamli moliyaviy platforma ishga tushirilib, “Elektron hukumat” tizimining raqamli ma‘lumotlar bazalari bilan integratsiya qilindi. Ilgari yillik aylanmasi 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan tadbirkorlar aylanmadan 1 foiz soliq to‘lar edi. Endi bu miqdor 5 milliard so‘m etib belgilandi. Yangi tartibga ko‘ra, yillik savdo aylanmasi 5 milliard so‘mga yetmagan korxonalar ortiqcha soliq yuki va



murakkab hisobotlardan xalos bo‘ldi. Inqilobiy yangilanishlar kelgusi faoliyatimizda qo‘l keladi. Ana shunday quvonchli xabarlaridan ilhomlanib, joriy yil 5,5 million dollarlik meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishni rejalaganmiz.

Tadbirkor Abdulmalik Asqarov bilan suhbatimiz jarayonida uning yana bir o‘ziga xos qiziqishini bilib oldik. U futbolning ashaddiy muxlisi ekan. O‘zbekiston milliy terma jamoamizni qo‘llab-quvvatlash maqsadida okean ortiga boribdi. U bizga yigitarimizning mundialdagi o‘yinlaridan olgan zavqini, stadion va uning atrofidagi muhitni hikoya qilib berdi. Uning mana shu hikoyasidan ham vatanparvarligi, el-yurtini o‘ylashini his etdik.

— Abdulmalik mahallamizda faol va fidoyi, saxiy tadbirkor sifatida hurmat qozongan, — deydi “So‘kchilik” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Valisher Nazarov. — Hozirgacha mahallamizdagi serqatnov avtomobil yo‘liga svetofo‘r o‘rnatish, 2 kilometr dan ortiq ichki yo‘llarni asfalt qilish, ko‘chalarga shag‘al to‘kib, ijtimoiy himoyaga

Yurtimizda ventchur fondlar va startaplarni moliyalashtirishga doir huquqiy baza mavjud hamda u so‘nggi yillarda sezilarli kengaytirildi. Ayni paytda mazkur soha bir necha qonun, Prezidentimiz qarori, farmoni va hukumat qarorlari orqali tartibga solinadi. Masalan, hukumatning 2019-yil 17-maydagi tegishli qarori bilan tasdiqlangan nizom bilan ventchur fondning tashkiliy faoliyati, boshqaruv kompaniyasi bilan munosabatlari, investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvga berish, kompaniyalarning ustav kapitalidagi ulushlarni sotib olish va keyinchalik realizatsiya qilish masalalari belgilangan bo‘lsa, 2020-yil 3-noyabrda qabul qilingan boshqa bir qarorda “O‘zVC” milliy ventchur fondi faoliyatining tashkiliy asoslari yaratilib, unga mahalliy va xorijiy yuridik hamda jismoniy shaxslar bilan sheriklikda ventchur loyihalarni moliyalashtiruvchi fondlar tashkil etish huquqi berildi.

Venchur investitsiyalar qaysidir ma‘noda O‘zbekiston amaliyoti uchun yangilik. Garchi o‘tgan qisqa davrda bu borada sezilarli tajriba to‘plangan bo‘lsa-da, hali yechimini kutayotgan muammolar yo‘q emas. Masalan, muvaffaqiyatli “yexit”, ya‘ni investorning o‘z ulushini foyda bilan sotib chiqish imkoniyatlari cheklangani. Venchur fondning ishlashi uchun faqat startapga kirish emas, undan chiqish bozori ham bo‘lishi kerak. Milliy startap portalida hozircha alohida e‘tirof etilgan chiqish bitimlari mavjud emasligi ekotizimning aynan shu bo‘g‘ini hali shakllanish jarayonida ekanini ko‘rsatadi.

Ikkinchi masala — startaplarning investitsiyaga tayyorgarlik darajasi. G‘oya mavjudligi investitsiya olish uchun yetarli emas. Investor mahsulotning bozorga mosligi, jamoaning salohiyati, moliyaviy model, intellektual mulk huquqi, korporativ hujjatlar, mijozlar dinamikasi va xalqaro o‘sish strategiyasini baholaydi. Ko‘plab startaplarda bu talablarning ayrimlari yetarlicha shakllanmagan bo‘ladi.

Asosiy muammolardan yana biri esa malakali ventchur menejerlar, tahlilchilar, startap yuritishlari va texnologik audit mutaxassislarning yetishmasligidir. Venchur kapital oddiy kredit tahlilidan farq qiladi. Investor ba‘zan hali bozori shakllanmagan texnologiyani baholashi kerak. Buning uchun moliya bilan birga texnologiya, mahsulot, xalqaro bozor va korporativ boshqaruv bo‘yicha chuqur bilim talab etiladi va hokazo.

Umuman olganda, O‘zbekiston ventchur investitsiyalarni jalb qilishning boshlang‘ich va o‘rta bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tmoqda. Buni yuqoridagi xalqaro reytinglar ham ko‘rsatib turibdi. Endi navbat global miqyosdagi yetuk ventchur markaziga aylanishga intilishdir. Buning uchun huquqiy, moliyaviy va institutsional infratuzilmani chuqurlashtirish zarur. Qolaversa, ventchur iqtisodiyotida milliy modelni yaratishda xususiy sektorni ko‘proq jalb etish kelgusida ushbu yo‘nalishni yanada rivojlantirishga yo‘l ochadi.

Boisi, ventchur investitsiya O‘zbekiston uchun shunchaki startaplarga pul yo‘naltirish mexanizmi emas. U iqtisodiyotning yangi sifatga o‘tishi, ilm-fan natijalarining bozorga chiqishi, yoshlarning yuqori malakali “intellekt” faoliyati bilan shug‘ullanishi, mahalliy kompaniyalarning xalqaro raqobatga kirishi va eksport tarkibining murakkablashishi uchun zarur institutdir.

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz

Yuz.uz



Boshlanishi 1-betda

Xalqaro kimyo olimpiadasi (IChO) kimyo fanini o'rganayotgan o'rta maktab o'quvchilari uchun eng nufuzli yillik musobaqadir.

1968-yilda ilk bor Praga shahrida tashkil etilgan olimpiadada bor-yo'g'i 3 ta davlatdan o'quvchilar ishtirok etgan bo'lsa, bu galgi olimpiada 90 dan ortiq mamlakatni qamrab oldi va dunyoning eng iqtidorli yosh kimyo mutaxassislarini birlashtirdi. O'zbekiston esa 2003-yildan buyon mazkur nufuzli musobaqada ishtirok etadi.

Har yili dunyoning yetakchi davlatlaridan eng iqtidorli o'quvchilar mazkur musobaqada nazariy bilim va laboratoriya ko'nikmalarini xalqaro standartlar asosida sinovdan o'tkazadi.

Bugungi kunda IChO nafaqat bilimlar bellashuvi, balki ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, turli mamlakatlar yoshlari o'rtasida do'stona aloqalarni mustahkamlash hamda kelajak olimlarini birlashtiruvchi nufuzli xalqaro platforma sifatida e'tirof etilmoqda.

Olimpiadaning bu yil mamlakatimizda o'tkazilishida alohida ma'no bor. Keyingi yillarda ta'limga berilayotgan e'tibor, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni xalqaro fan olimpiadalariga tizimli tayyorlash va zamonaviy ta'lim muhitini shakllantirish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlar bugun dunyo hamjamiyati e'tibori markazida. Turli mintaqaviy va xalqaro olimpiadalarda yuqori o'rinlarni qayd etib, yurtimiz sha'nini ko'tarayotgan iqtidorli o'g'il-qizlarning yutuqlari dunyo ta'limi sahnasida munosib e'tirof etilayotir.

Bunda Prezidentimizning 2024-yil 30-sentabrda "Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tashkil etilgan Fan olimpiadalarining markazining o'rni alohida. Mazkur markaz faoliyati doirasida xalqaro standartlar asosida fan olimpiadalariga tayyorgarlik tizimi yo'lga qo'yildi. Xorijlik murabbiy va ekspertlar jalb qilindi, terma jamoalar uchun intensiv o'quv yig'inlari tashkil etildi, zamonaviy laboratoriyalar va ilmiy-metodik baza shakllantirildi.

Bu nufuzli fan olimpiadalarining yurtimizda tashkil etilishi uchun zarur shart-sharoit hozirladi. Keng imkoniyat, zamonaviy shart-sharoit va yuqori darajadagi tashkiliy ishlar mamlakatimiz nufuzli xalqaro kimyo olimpiadasiga mezbonlik qilishiga imkoniyat yaratadi.

Olimpiadaga tayyorgarlik 2024-yildan izchil boshlandi. Jumladan, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklarida o'tkazilgan 56-va 57-IChO tajribasi o'rganildi. IChO 2026 rasmiy logotipi va veb-sayti ishlab chiqildi. Delegatsiyalar bilan ishlash uchun maxsus axborot platformasi yaratildi. Nazariy va amaliy topshiriqlarni tayyorlash uchun xalqaro ilmiy qo'mita shakllantirildi, laboratoriyalar xalqaro standartlarga mos jihozlandi. Reagentlar va zamonaviy laboratoriya uskunalari xarid qilindi.

Ilmiy qo'mita tarkibiga Garvard universiteti (AQSH), Bilkent universiteti (Turkiya),

2026-yilda O'zbekiston birinchi marta xalqaro kimyo olimpiadasiga mezbonlik qildi. Ushbu muhim tadbir O'zbekistonning fan va ta'limni rivojlantirishga e'tibori, zamonaviy ta'lim tizimi yutuqlarini global miqyosda namoyish etish imkoniyatini berdi.

Fan olimpiadalari



DUNYO YOSH KIMYOGARLARINING TOSHKENT TAJRIBASI

buyuk kashfiyotlarga qo'yilgan mustahkam qadamdir

ETH Zurich (Shveysariya), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti hamda Praga kimyo va texnologiya universiteti kabi dunyoning yetakchi ilmiy markazlari vakillari jalb etildi.

Poytaxtimiz mezbonlik qilgan 58-xalqaro kimyo olimpiadasi dunyoning turli burchaklaridan kelgan yoshi iqtidor egalari aql, izlanish, jasorat bellashuvida birlashtirdi. Har bir tajriba kelajak kashfiyotlariga qo'yilgan yana bir mustahkam qadamga aylandi.

58-xalqaro kimyo olimpiadasi sinovlari ikki asosiy — amaliy va nazariy bosqich shaklida tashkil etildi. O'rnatilgan tartibga ko'ra, amaliy imtihonlarda maksimal 40 ball, nazariy imtihonlarda maksimal 60 ball (jami 100 ball) belgilandi. Olimpiadaning birinchi amaliy bosqichida ishtirokchilar 3 ta laboratoriya topshirig'ini bajardi. Buning uchun ularga 5 soat vaqt ajratildi.

Nazariy sinovlar doirasida kimyo fanidan 9 ta masala berildi. Mazkur masalalar orasida O'zbekistonga oid qiziqarli savollar ham o'rin oldi. Bu xorijlik yoshlarning O'zbekiston haqidagi tasavvurlarini boyitdi. Bolalar kimyoda nafaqat bilimlari, balki orzu-maqсадlari, ijodkorlik va kashfiyotchilikka ishtiyoqini ham namoyish etdi.

Nihoyat hayajonli damlar. 18-iyul kuni "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar suroni shukuhli bayram tusini oldi. Yosh kimyogarlar, ularning o'qituvchilari 58-xalqaro kimyo olimpiadasining tantanalari qatnashib marosimni chuqur entikish bilan qarshi oldi. Bu lahzalar ularning hayotida ilimga sadoqat, yuksak intilishning unutilmas sahifasi sifatida muhrlandi.

G'oliblar e'lon qilindi. Yosh iqtidor egalari mukofotlarni qabul qilib olar ekan, zalni to'ldirgan olqishlar ularning ilimga bag'ishlangan mehnatiga eng yuksak ehtirom yanglig' jarangladi.

— Baholash jarayonlari shaffof tarzda, hammaga teng imkoniyat tamoyili asosida o'tkazildi, — dedi Fan olimpiadalari markazi direktori To'raboy Shermatov. — Hakamlar hay'ati va mentorlarning yakuniy yig'ilish qaroriga ko'ra, 41 o'quvchi oltin, 74 nafari kumush, 112 nafari bronza medal bilan taqdirlandi.

Nufuzli musobaqada O'zbekistondan ishtirok etgan o'quvchilarning barchasi sovrinli o'rinlarni egalladi. Xususan, Rayhona Tuyumurodova oltin, Jasur Mustafoyev, Azizmuhammad Hafizov va Mirjalol Homidjonov kumush medalni qo'lga kiritdi.

Prezidentimizning tegishli qaroriga ko'ra, g'oliblar har bir oltin, kumush va bronza medallar uchun tegishli baziavi hisoblash miqdorining 35, 25, 15 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Olimpiadaning samarasi faqat medallar soni bilan o'lchanmaydi. O'quvchilarning g'oliblikni qo'lga kiritishi va moddiy rag'batlantirilishi ularni ruhlantiradi, kelajakda dunyoning eng yaxshi kashfiyotlarini yaratishiga zamin hozirlaydi. Zero, tajribalar ko'rsatadiki, aksariyat hollarda dunyodagi eng omadli startaplar, g'oyalar mualliflari sobiq olimpiadachilardir. Kreativ fikrlash, masalaga boshqacha rakursdan yondashish va optimal yechim bera olish qobiliyati jamiyat va mamlakat rivojida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bu oddiy musobaqa emas, balki intellektual diplomatiya IChO intellektual diplomatiyaning eng yorqin namunalaridan biridir. Chunki bu olimpiada turli davlatlarning iqtidorli yoshlari, ustozlari va olimlarini kimyo ilmi atrofida birlashtiradi. Ilmiy mulotot, o'zaro hurmat va hamkorlikni mustahkamlaydi. Bu yerda raqobat bilim orqali kechadi, kimyoviy formulalar xalqaro hamkorlik toliga aylanadi.

Ushbu musobaqa jamoaviy natijalar emas, balki individual yutuqlarni e'tirof etadi, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish uchun g'oliblar munosib rag'batlantiriladi.

Nima uchun kimyoga bu darajada e'tibor degan haqli savol tug'ilishi mumkin. Dunyoda ilm-fan va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda kimyo faniga ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Nanotexnologiya, biotexnologiya,

farmatsevtika, neft-gaz sanoati va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlarida kimyo muhandislariga talab yuqori. Kimyo inson hayotini yaxshilash, sog'liqni saqlash, sanoatni rivojlantirish va tabiatni asrashda muhim fanlardan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur olimpiadani kelajak texnologiyalari olimpiadasi, deyish mumkin.

2026-yilda O'zbekiston birinchi marta xalqaro kimyo olimpiadasiga mezbonlik qildi. Ushbu muhim tadbir O'zbekistonning fan va ta'limni rivojlantirishga e'tibori,

zamonaviy ta'lim tizimi yutuqlarini global miqyosda namoyish etish imkoniyatini berdi. Olimpiada mintaqaning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo'shishi va yangi avlod o'quvchilarini kimyoda ulkan marralar sari ilhomlantirishiga umid bor.

Nufuzli tadbir yoshlarning ilm-fanga qiziqishini kuchaytirishi, xalqaro akademik hamkorlikni kengaytirishi, mamlakatimizning turizm va madaniy salohiyatini dunyoga targ'ib qilishi bilan ahamiyatli.

— Olimpiadada savollar 100 foiz asl bo'lishi kerak, shunday bo'ldi ham, — deydi To'raboy Shermatov. — Bu O'zbekistonda ilmiy salohiyat yuqori ekanini ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida 400 ga yaqin ishtirokchi olimpiadada laboratoriya bosqichini bajaradi. Bu 400 kishilik laboratoriya O'zbekistonda mavjud ekanini anglatadi. Hakamlar hay'ati har bir qismi muhkama qildi. O'zbekistonga ishonib topshirilgan ushbu olimpiada musobaqa tarixida eng kuchli yosh kimyogarlar bellashuvi, balki yangi O'zbekistonning ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalar sohasidagi salohiyatini dunyoga namoyish etuvchi tarixiy voqeadir. Buni faqat biz emas, balki xorijlik mehmonlar, xalqaro ilmiy, boshqaruv qo'mita vakillari ham e'tirof etmoqda.

KO'ZGU 5

2026-yil 21-iyul, 146-son

Jon Leon KIAPPES, xalqaro kimyo olimpiadasi boshqaruv qo'mitasi raisi: — Bu yilgi xalqaro kimyo olimpiadasi juda o'zgacha bo'ldi. Ushbu nufuzli olimpiada Markaziy Osiyo mintaqasida ilk bor o'tkazildi. Kimyo faniga oid topshiriq va vazifalarda O'zbekistonning boy tarixi, yurtimizdan yetishib chiqqan mashhur olimlar va muhim voqealar o'z aksini topdi.

O'zbekistonning milliy madaniyati va barchamiz guvoh bo'lgan samimiy mehmondo'stligi alohida bir mavzu. Bu yerda har bir ishtirokchi o'zini chin dildan kutib olingandek his qildi. Ular mamlakatining uzoq va boy tarixi bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lganidan mamnun. O'zbekistonlik ishtirokchilarning olimpiadadagi natijalariga nazar tashlasak, ularning o'sish chindan ham yuqori. Atigi bir necha yil ichidagi yutuqlar o'quvchilar mehnat qilayotganini, shuningdek, ularning oilalari, ustozlari va ta'lim muassasalari mamlakat ta'lim tizimi tomonidan qanday kuchli qo'llanilishini ko'rdik.

Ben Pilgrim, Xalqaro ilmiy qo'mitaning a'zosi: — Kimyo ijodkorlikni rag'batlantiradi va chegaralardan tashqariga chiqadigan do'stlikni mustahkamlaydi. Joriy yil bu an'ana O'zbekistonda o'zgacha mazmun kasb etdi.

Olimpiada fan chegarasizligini yana bir bor ko'rsatdi. Xalqaro kimyo olimpiadasi mamlakatimiz ta'lim tizimi sifatida, yoshlarni tayyorlash salohiyati va ilmiy maktablar raqobatbardoshligini namoyon etdi. Unda yurtimiz o'quvchilarining munosib ishtirok etishi va yaxshi natijalarga erishishi O'zbekistonda zamonaviy ta'lim muhitini shakllantirish hamda fundamental fanlarni rivojlantirishga qaratilgan e'tibor natijasidir.

Bu shu paytgacha o'tkazilgan eng yaxshi kimyo olimpiadalaridan biri bo'ldi. Mezbonlar ajoyib mehmondo'stlik, mazali taomlar, yoqimli sayohatlarini taqdim etdi. O'zbekiston — qadimiy meros va zamonaviy taraqqiyot birlashadigan mamlakat. Tarixiy joylarga sayohatimiz unutilmas taassurotlarga oshno etdi. Lekin, menimcha, birinchi navbatda, murabbiylarni hayratda qoldirgan jihat yosh avlodga berilayotgan chuqur ta'lim bo'ldi.

Kimyo olimpiadasi savollarining aksariyati mahalliy o'zbek mualliflari tomonidan tayyorlangan. Ular murakkab savollar to'plamini tayyorlashda jonzoblik ko'rsatdi. Bu savollar eng yaxshi o'quvchilarni aniqlashda qo'l keldi, shuningdek, barcha mamlakatlardan kelgan o'quvchilarga turli mavzularda o'z bilimlarini sinab ko'rish imkonini berdi. Savollarda, shuningdek, O'zbekiston uchun muhim bo'lgan mavzularga e'tibor qaratilgan holda yoqimli milliy ruh ham bor edi. Masalan, afsonaviy olim Ibn Sino, uning laboratoriyasi, eliksirlari va yuzlab yillar oldin ishlagan birikmalari haqida.

Shomansur SAGDULLAYEV, Fanlar akademiyasi birinchi vitse-prezidenti, akademik:

— Fan olimpiadalarini markazi ish boshlaganiga hali uncha ko'p vaqt bo'lgani yo'q. O'tgan davrda O'zbekiston terma jamoasi bir necha nufuzli xalqaro olimpiadada tarixiy natijalarga erishdi. Ushbu nufuzli musobaqada ham to'rt o'quvchimizning samarali ishtirok etishi, tashkiliy masalalarning bekamu ko'stligi, barcha jarayonlarda xolislik, oshkorlik tamoyillariga amal qilining mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yana bir bor namoyish etdi.

Davlatimiz rahbarining asosiy talabi ham iqtidorli o'g'il-qizlarni qo'llab-quvvatlash, salohiyatini ro'yobga chiqarish, yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirish hamda jahon miqyosida vatanimiz dovrug'ini keng taratgan buyuk ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalashdir.

Xalqaro olimpiadalar nafaqat ilm-fan yo'nalishlarida musobaqalashish, shu bilan birga, 90 dan ortiq davlatdan kelgan ishtirokchilar, ularning murabbiylari, xalqaro ekspertlar uchun O'zbekiston davlati va xalqimizning tarixi, madaniy merosi, tub islohotlarning natijalari bilan tanishish va xulosa qilish, yangi do'stlar o'rnatish imkoniyati hamdir.

Shu nuqtayi nazardan, xalqaro kimyo olimpiadasi yoshlarni kimyo fanini chuqur o'rganish, mustaqil fikrlash, ilmiy izlanish qilish va innovatsion g'oyalarni ustida ishlashga undaydi. Dunyoning eng iqtidorli o'quvchilarini birlashtirgan bu nufuzli intellektual musobaqa ishtirokchilarning ilmiy tafakkurini sinovdan o'tkazdi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar jadal rivojlanayotgan sharoitda olimpiada nafaqat iqtidorli yoshlarni aniqlash, balki kelajak olimlari, muhandislari va innovatsion iqtisodiyot uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Bunday nufuzli olimpiadalarda muvaffaqiyat qozonish mamlakatimizning ta'lim tizimi, ilmiy salohiyati va xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Risolat MADIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Zamon bilan hamnafas

— Men shaharga ko'chib ketishni xohlayman, chunki u yerda zamonaviy maktablar bor. Orzuim o'shanday maktabda o'qish. — Bizning maktab kichik, binosi eski, shaharda esa yangi va chiroyli maktablar ko'p.

Bir necha yillar avval qishloq bolalarining ko'nglidan shunday fikrlar ko'p bora o'tardi. O'zimiz ham bolaligimizda shahardagi zamonaviy maktablarda o'qishni orzu qilganimiz. Hozir bunday qarashlar o'zgardi. Mamlakatimizda ta'lim sohasiga qaratilgan e'tibor, yosh avlodning munosib bilim olishi uchun barcha hududlarda birdek sharoit yaratishga ajratilayotgan samoyalar evaziga qishloqlar va olis hududlarda ham maktablar uchun ko'p qavatli, zamonaviy binolar qurilyapti, mukammal ta'mirlanayapti. Zarurat bo'lgan joyda qo'shimcha o'quv binolari barpo etilyapti. Ayni vaqtda hududlarda bu kabi ishlar yanada jadallashgan.

Yozgi ta'tilda maktablarda qurilish-bunyodkorlik ishlari yanada avj oladi. Yangi o'quv yilida o'quvchilar istaganidek zamonaviy, barcha shart-sharoitiga ega maktab bag'rini ochadi. Karmana tumanida ham bu jarayon qizg'in amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda tumanimizda 33 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi va 1 ta maktab filiali faoliyat yuritmoqda, — deydi Karmana tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i Zamira Xo'jayeva. — Ushbu maktablarda 22 ming 529 o'quvchi bor. Ularda ta'lim o'zbek va rus tillarida olib boriladi. Joriy yil 1575 o'quvchi maktabni bitirdi. Ularning 34 nafari oltin, 12 nafari kumush medal olishga erishdi. Ayni vaqtda tumanimizdagi 15 ta obyektda 50 milliard

503 million so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilyapti. Bu jarayonda 12 ta maktabda qo'shimcha bino, 3 ta 180 o'rinni maktab qurilyapti. Ular yangi o'quv yilida o'quvchilarga munosib tuhfa bo'ladi. Chunki har bitta maktab zamonaviy standartlarga moslab qurilmoqda. Qurilish olib borilayotgan maktablar yangi jihozlar bilan ta'minlanadi. Albatta, zamonaviy maktab imkoniyatlar eishigini ochadi. Yoshlarning o'qib-o'rganishga ishtiyoqini kuchaytirib, jarayonda zarur bo'lgan barcha sharoitni muhayyo qiladi. Birgina misol, tumanning Katta machit mahallasidagi 17-umumiy o'rta ta'lim maktabi 1956-yilda qurilgan. Bugun eski bino mukammal ta'mirlanib, 3 qavatdan iborat 540 o'rinni qo'shimcha bino qurilyapti.

— Maktabimizda 600 o'quvchi ta'lim oladi, — deydi mazkur maktab direktori Sohiba Eshonqulova. — Eski maktab to'liq qamrov uchun kichiklik qilayotgan edi. Qurilish-ta'mirlash ishlari yakunlangancha ming o'quvchiga ta'lim berish imkoniga ega bo'lamiz. Binoda zamonaviy sharoit yaratilayotgani ta'lim sifatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayni vaqtda tumanda investitsiya dasturi doirasida ham ikkita maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilyapti. Jumladan, 20-umumiy o'rta ta'lim maktabida qiymati 1 milliard 930 million 900 ming so'm evaziga sport zali va 15-umumiy o'rta ta'lim maktabida 7 milliard 765,5



ORZULAR RO'YOBGA CHIQDI

OLIS HUDUDLARDA HAM KO'RKAM MAKTABLAR BUNYOD ETILMOQDA

million so'm evaziga o'quv binosi mukammal ta'mirlanayapti. Mahalliy byudjet va boshqa mablag'lar hisobidan esa tumandagi 27-umumiy o'rta ta'lim maktabida sun'iy qoplamali stadion va vorkaut maydonchasi qurilyapti. 16-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida loyiha qiymati 1 milliard 800 million so'm bo'lgan mukammal ta'mirlash ishlari yakuniga yetkazildi.

Islom taraqqiyot bankining "Qishloq joylarini barqaror rivojlantirish" dasturi mablag'lari hisobidan ham tumanda ulkan qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, 12 ta davlat maktabgacha ta'lim

tashkiloti va maktab ushbu dastur asosida butunlay yangi qiyofaga keltirilmoqda. O'rganish asosida ular mukammal ta'mirlash, qo'shimcha bino qurish ishlari olib borilmoqda.

— Ayni vaqtda 630 o'rinni maktabimiz binosi kapital ta'mirlanayapti va 540 o'rinni yangi bino qurilmoqda, — deydi Karmana tumandagi 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori Namozjon Saidov. — Yangi binomiz elektr energiyasini tejashga moslashtirilyapti. U qishda issiq, yozda salqin bo'ladi. Shu vaqtgacha sinfxonalar yetishmagani bois, ikki smenada ta'lim berishga majbur edik. Qurilish yakunlangach, bu

masala ham to'liq yechim topadi. O'quvchilarni fan olimpiadalari, sport musobaqalari, kitobxonlik va boshqa tanlovlarda yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelyapti. Yangi o'quv yilida ular zamonaviy, yangi qiyofadagi ta'lim maskanida tahsil olib, har yilgidan ham ko'proq yutuqlarga erishishiga ishonamiz.

Aksariyat ta'lim maskanlari allaqachon yangi o'quv yiliga tayyor bo'lgan. Jumladan, tumandagi 32-umumiy o'rta ta'lim maktabi barcha zamonaviy sharoitlarga ega bo'lib, yangi o'quv yiliga shay holatga keltirilgan. Bu ta'lim maskani ham shahardagi maktablardan qolishmaydi. Uning

ta'mirida ta'lim berish uchun barcha jihat inobatga olingan. Faqat o'quvchilar o'z oldiga buyuk maqsadlarni qo'yib, zamonaviy sharoitlardan unumli foydalanib, bilim olsa kifoya.

Mamlakatdagi har bir soha rivoji salohiyatli kadrlarni tayyorlash, uning tub ildizi bo'lgan ta'limga borib taqaladi. Qachonki, zarur shart-sharoitga ega, ilg'or bilimlarni egallash uchun jihozlar bilan to'liq ta'minlangan va zamon talabiga mos pedagoglar faoliyat olib boradigan maktablar soni ko'paysa, ko'zlangan natijaga erishiladi. Karmana tumani misolida ko'rish mumkinki, eng olis hududlarda ham biz va yosh avlod istagan ta'lim maskanlari bunyod bo'lmoqda.

— Maktabimiz 330 o'rinni bo'lib, 2024-yil sentyabrda foydalanishga topshirilgan edi, — deydi Karmana tumandagi 32-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori Zulfiya Habibullayeva. — Zamonaviy imkoniyatlar tufayli pedagoglarimizning ham toifalari oshib bormoqda. To'rt nafar o'qituvchimiz 70 foizlik ustamani qo'lga kiritdi. O'qituvchilarning 80 foizi oliy va 1-toifali pedagoglar va xalqaro sertifikatlarga ega. O'quvchilarning 80 foizi turli sertifikatlar olgan. Maktabimiz zamonaviy, oxirgi rumumdagi kompyuterlar bilan jihozlangan. Shuningdek, kutubxonamiz ham juda chiroyli va katta kitob fondiga ega.

Bir so'z bilan aytganda, bugun shahar va qishloqlardagi maktablar o'rtasida deyarli tafovut yo'q. Eng chekka qishloqlarda ham jahon standartlariga mos keladigan maktablar bunyod etildi. Bu esa o'quvchilarning bilimlari yanada oshib, salohiyati yuksalishiga zamin yaratmoqda. Bunday zamonaviy ta'lim maskanlarida esa kelajakning haqiqiy bunyodkorlari kamol topishi shubhasiz.

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

6

MEZON

2026-yil 21-iyul, 146-son

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida allomalar ilmiy merosini o‘rganish borasidagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Bu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar uchun mustahkam huquqiy asoslarni yaratildi. Xossatan, 2017-yil 27-mart kuni davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi.



Mehrojiddin AMONOV, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

63 gektarli ushbu hududga kirgan odam, avvalo, uning kengligini va mahobatini his qiladi. Masjidning old qismidagi katta hovuz, atrofidagi keng maydon, gumbazlar, minoralardagi uyg‘unlik seziladi. Masjidning kirish va ayvon peshtoqlarida yuzdan ortiq oyat va hadis yozilgan.

Boqiy meros




IMOM BUXORIY MAJMUASI MAHOBATI




qavatli, 18 xonadonli turar joy hamda majmuaga olib boruvchi Oqdaryo-Kulbosti avtomobil yo‘li bo‘yida milliy ko‘rinishdagi, 2 qavatli 62 ta kottej qurib bitkazildi.




maskani bo‘lishi, Imom Buxoriyning buyuk izlanishlari, bilimi hamda kamoloti ziyoratchilar, ayniqsa, yoshlar uchun ezuq namuna bo‘lishi kerakligini ta’kidlashi bejiz emas.



Mazkur qarorda Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 2016-yil oktyabr oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan 43-sessiyasida mamlakatimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbus asosida Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish belgilandi.



Markaz faoliyatining asosiy vazifalari etib Imom Buxoriy hamda boshqa buyuk mutafakkirlarning ulkan ilmiy va diniy merosini o‘rganish, islom sivilizatsiyasining umuminsoniy qadriyatlarini, jumladan, xalqimiz ma’naviyati va madaniyatini rivojidadagi o‘rni hamda ahamiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish kabi masalalar belgilab berildi. Ushbu qarorning qabul qilinishi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini samarali tashkil etish, ilmiy salohiyatini oshirish va buyuk allomalar merosini chuqur o‘rganish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirishga xizmat qildi.



Shuningdek, Prezidentimizning 2018-yil 16-apreldagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ijrosini ta’minlash, islom dini va hadis ilmi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk vatandoshlarimizning boy merosini chuqur o‘rganish, ular tomonidan asos solingan



Obod manzillar

Qo‘ng‘irot tumani Qoraqalpog‘istonning eng qadimiy va boy tarixga ega go‘shalaridan biri. Prezidentimizning 2025-yil 1-apreldagi qarori bilan Qo‘ng‘irot tumanini 2025-2026-yillarda jadal kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlangan edi. Dastur sabab boshlangan bunyodkorlik ishlari hududning infratuzilmasini yangilab, ma’naviy va madaniy qiyofasini tubdan o‘zgartirmoqda.



Umitay TILEUMUROTOVA, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Qo‘ng‘irot tumani bo‘linmasi rahbari

aholining aytishicha, hatto XIV asrda ham Qo‘ng‘irot qo‘ng‘onida mahobatli darvozalar bo‘lgan. XIX asrda To‘rabiyo qal’asining shimoliy qismida joylashgan Mustafo eshon o‘ralgan bo‘lib, xalqni tashqi xavf-xatarlardan himoya qilishda muhim rol o‘ynagan. Mahalliy

Qo‘ng‘irot qal’asining g‘arbiy tomonida joylashgan bosh darvoza esa 1930-yillargacha o‘z holatini saqlab kelgan. Ustyurt tekisligidagi yana bir tarixiy maskan — Beleuli karvonsaroyi darvozasi o‘rta asrlar me’morchiligining yuksak namunasidir. Beleuli binosi mintaqaviy karvonsaroylar uchun odatiy rejaga ega bo‘lib, yopiq to‘rtburchak hovli, xonalar va xo‘jalik xonalari bilan o‘ralgan. Ko‘rinadiki, qadimiy Qo‘ng‘irot darvoza tushunchasi shunchaki me’moriy atama emas, balki xavfsizlik, qut-baraka va mehmondo‘stlik ramzi hisoblangan. Bugun tumaning o‘sha tarixiy haqiqatlari qayta tiklanmoqda.

Prezidentimiz qarori asosida Qo‘ng‘irot tumani markaziga olib kiruvchi va chiquvchi yo‘llarni tubdan rekonstruksiya qilish boshlandi. Loyiha tuman logistikasini yaxshilash va aholiga qulaylik yaratishda muhim ahamiyatga ega. Yo‘l bo‘yida savdo va servis xizmatlari ochiladi. Bu esa yangi ish o‘rinlarini yaratib, aholi farovonligini oshiradi. Yo‘lning boshlanish qismida Qo‘ng‘irot tumanining o‘ziga xos tashrif qog‘oziga aylanishi kutilayotgan zamonaviy darvoza qad rostlaydi.

Bu loyiha yuzasidan yaqinda tuman hokimi Behzod Madaminov ishtirokida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-746. 29609 nusxada bosildi. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy